

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, t.f.d., v.b. prof G'.Doliyev, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., prof. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., prof. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.d., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, s.f.d., prof v.b. N.B. Dexkanov, t.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.d. dots. Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.d., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. dots. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov, g.f.d., dots. A.Nazarov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n.,dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.d., dots. S.Abdullayev, PhD. D.Sarimsakova., PhD. B.Urinov.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-oktyabrdagi kengaytirilgan 10-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 10). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023



UO'K:796.015.82:89

SPORT KURASHI TURLARIGA SARALASH VA ERTA YO'NALTIRISHNING ILMIY-METODIK XUSUSIYATLARI

Xamidjonov Abdulaziz Usubjon o'g'li

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti doktoranti (DSc)

E-mail: abdulaziz19931910@gmail.ru Tel: + 998 99 396 50 36

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport kurashi (Dzyodo, Erkin kurash, Yunon rum kurashi, Belbog'li kurash, Kurash) turlariga saralash va erta yo'naltirish metodologiyasi bo'yicha, qolaversa sport kurashi turlariga saralash yosh davrlari, tayyorgarlik xususiyatlari, jismoniy sifatlarni saralash va yo'naltirishdagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Sport kurashi, saralash, erta yo'naltirish, anketa, so'rovnoma, dzyodo, erkin kurash, yunon rum kurashi, belbog'li kurash, kurash, metodika, tadqiqot, natijalar, jismoniy sifatlar, kuch, tezkor-kuch, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, tezkorlik, umumiy, maxsus, jismoniy tayyorgarlik.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОРТИРОВКИ И РАННЕЙ ОРИЕНТАЦИИ ПО ВИДАМ СПОРТИВНОЙ БОРЬБЫ

Хамиджанов Абдулазиз Усубжон угли

Докторант (DSc) научно-исследовательского института физической культуры и спорта

E-mail: abdulaziz19931910@gmail.ru Тел: + 998 99 396 50 36

Ключевые слова: спортивная борьба, квалификация, ранняя ориентация, анкета, опрос, дзюдо, вольная Борьба, греко-римская борьба, поясная борьба, борьба, методика, исследование, результаты, физические качества, сила, быстрота-сила, ловкость, гибкость, выносливость, быстрота, общая, специальная, физическая подготовка.

Аннотация: В данной статье представлена информация о методике отбора и ранней ориентации по видам спортивной борьбы (дзюдо, вольная Борьба, греко-римская борьба, поясная борьба, борьба), а также о возрастных периодах отбора по видам спортивной борьбы, особенностях подготовки, роли и значении в отборе и ориентации физических качеств.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FEATURES OF QUALIFYING AND EARLY ORIENTATION FOR SPORTS WRESTLING TYPES

Khamidzhanov Abdulaziz Usubjon ugly

Doctoral student of (DSc) the Research Institute of Physical Culture and Sports

E-mail: abdulaziz19931910@gmail.ru Phone: + 998 99 396 50 36

Keywords: wrestling, qualification, early orientation, questionnaire, survey, judo, freestyle wrestling, Greco-Roman wrestling, belt wrestling, wrestling, methodology, research, results, physical qualities, strength, speed-strength, agility, flexibility, endurance, speed, general, special, physical training.

Abstract: This article presents information about the selection methodology and early orientation by types of wrestling (judo, freestyle wrestling, Greco-Roman wrestling, belt wrestling, wrestling), as well as about the age periods of selection by types of wrestling, training features, the role and significance in the selection and orientation of physical qualities.

Mavzuning dolzarbligi. Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirish metodikasini yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiya va takliflarni ishlab chiqish nafaqat sport kurash turlari balki barcha sport turlari oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda sport kurash turlariga saralash va erta yo'naltirishda qo'llanilayotgan uslublar kurashchilarni jismoniy rivojlanishi, jismoniy sifatlari, texnik-taktik tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash orqali saralash vazifalarini aniqlash imkonini bermaydi, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlari yetarli emasligi, tadqiqot predmeti sifatida to'liq o'rganilmaganligini ko'rsatadi.

Mavzuning o'rganilganligi Mazkur mavzu yuzasidan so'rovnoman tuzishda mahalliy olimlardan Kerimov F.A. (2020), Matkarimov R.M. (2015), Usmonxo'jayev T.S., Aliyev M.B., Sagdiyev H.H., Turdiyev F.K., Akramov J.A., (2006), Salamov R.S. (2015), Xalmuxamedov R.D., Shin V.N., Abdurasulova G.B., Tajibaev S.S. (2013), Shakirjanova K.T., Tuxtabayev N.T. (2010), Mirjamolov M.X. (2022), Umarov D.X., Xolmurodov L.Z. (2021), Adilov S.Q. (2018), Nurshin J.M., Mirzakulov Sh.A., Z.S.Artikov (2019), Azizov N.N. (2007), Tastanov N.A., (2017), Olimov M.S. (2019), Dadabayev O.J. (2021) va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan foydalanildi.

Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi va xorijda mavzu yuzasidan olib borilgan bir qator tadqiqotlar Matviyev L.P., (1999), Verxoshanskiy Y.V., (2013), Zasorskiy V.M. (2009), Liyax V.I. (2000), Matviyev L.P. (1999), Ozolin N.G. (2008) Guba V.P., Fomin S.G., Chernov S.V. (2006), Fukuda D. Kelly, J. Albuquerque, M. Stout, J. Hoffman (2017) va boshqa ko'pgina olimlarning tadqiqot ishlari natijalaridan foydalanildi, jumladan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya, maqola va tezislardan saralash va erta yo'naltirish tizimini asoslovchi nazariy ma'lumotlarni o'rganib, mazkur muammoning amaliyotdagi joriy holatini o'rganish asosida ushbu muammoni bartaraf qilish uchun ushbu so'rovnoma ishlab chiqildi.

Ilmiy-metodik adabiyotlar hamda o'tkazilgan tadqiqot va ulardan olingan natijalarga asosanib mazkur mavzuning dolzarbligi quyidagicha asoslanadi. Jumladan sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishga oid o'rganilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida mamlakatimiz va dunyo hamjamiyatida so'ngi yillarda sport turlariga bolalarni saralash va erta yo'naltirishga oid ilmiy tadqiqotlarda takliflar hamda tavsiyalar berilgan bo'lib, ammo ushbu izlanishlarda aynan sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirish bo'yicha aniq bir tizim ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish masalalari bo'yicha yetarlicha malumotlar yoritilmaganligi o'z isbotini topdi.


Asosiy qism. Yuqoridagi keltirilgan mualliflarning ilmiy-uslubiy adabiyotlari tahlillariga asosanib, sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirish tizimi va uning mazmunini takomillashtirish hamda nazariy va amaliy holatini o'rganish va saralashdagi muammolarni aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma Namangan viloyatida sport kurashi turlarida faoliyat olib borayotgan murabbiylardan olindi va javoblar foizlarda ko'rsatildi (1-jadvalga qarang).

Sport kurashi turlariga bolalarni saralash va erta yo'naltirish muommosi yuzasidan anketa so'rovnomasi natijalari

Anketa so'rovnomasi savollari	Sport kurashi turlari	Javoblarning umumiy o'rtacha foiz (%) hisobidagi ko'rsatkichlari							
		1-javob	Foiz	2-javob	Foiz	3-javob	Foiz	4-javob	Foiz
Siz sport kurash turlariga nechta yoshdan qabul qilgan ma'qul deb hisoblaysiz?	Dzyodo	6-7 yosh	23%	8-9 yosh	22%	10-11 yosh	36%	12-13 yosh	19%
	Erkin kurash	6-7 yosh	26%	8-9 yosh	24%	10-11 yosh	38%	12-13 yosh	12%
	Yunon rum kurashi	6-7 yosh	22%	8-9 yosh	27%	10-11 yosh	34%	12-13 yosh	17%
	Belbog'li kurash	6-7 yosh	16%	8-9 yosh	35%	10-11 yosh	39%	12-13 yosh	10%
	Kurash	6-7 yosh	19%	8-9 yosh	24%	10-11 yosh	44%	12-13 yosh	13%
	Dzyodo	Tezkor-kuch	26%	Chidamlilik	37%	Egilluvchanlik	15%	Chaqqonlik	22%
Sport kurashi turlariga bolalarni saralab olishda qaysi jismoniy sifatlariga e'tibor berasiz?	Erkin kurash	Chaqqonlik	31%	Tezkor-kuch	22%	Chidamlilik	26%	Egilluvchanlik	21%
	Yunon rum kurashi	Egilluvchanlik	27%	Tezkor-kuch	23%	Chaqqonlik	17%	Chidamlilik	33%
	Belbog'li kurash	Chidamlilik	17%	Chaqqonlik	25%	Egilluvchanlik	29%	Tezkor-kuch	29%
	Kurash	Chidamlilik	23%	Egilluvchanlik	18%	Tezkor-kuch	33%	Chaqqonlik	26%
	Dzyodo	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	43%	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	27%	Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar	19%	Funksional tayyorgarlik	11%
Sport kurashi turlariga bolalarni saralashda qaysi tayyorgarlik turlaridan foydalanasiz?	Erkin kurash	Funksional tayyorgarlik	13%	Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar	18%	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	45%	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	24%

		1-jadval davomi							
	Yunon rum kurashi	Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar	15%	Funksional tayvovgarlik	11%	Maxsus jismoniy tayvovgarlik	22%	Umumiy jismoniy tayvovgarlik	52%
	Belbog'li kurash	Funksional tayvovgarlik	12%	Umumiy jismoniy tayvovgarlik	48%	Maxsus jismoniy tayvovgarlik	24%	Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar	16%
	Kurash	Umumiy jismoniy tayvovgarlik	46%	Funksional tayvovgarlik	13%	Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar	18%	Maxsus jismoniy tayvovgarlik	23%
	Dzyodo	Yo'q	8%	Ha	16%	Katta yoshli kurashchilarda foydalanaman	57%	Barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hil	19%
Sport kurashi turlariga vazn-bolalarni saralashda vazn-toifalarini inobatga olgan xolda me'yorlardan foydalanasizmi?	Erkin kurash	Ha	11%	Barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hil	24%	Yo'q	19%	Katta yoshli kurashchilarda foydalanaman	46%
	Yunon rum kurashi	Barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hil	39%	Ha	15%	Katta yoshli kurashchilarda foydalanaman	22%	Yo'q	24%
	Belbog'li kurash	Ha	17%	Katta yoshli kurashchilarda foydalanaman	35%	Yo'q	23%	Barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hil	25%
	Kurash	Katta yoshli kurashchilarda foydalanaman	23%	Yo'q	29%	Barcha vazn-toifalarini uchun me'yoriy testlar bir hil	39%	Ha	9%


O'tkazilgan anketa so'rovnomasi tahlili shuni ko'rsatdiki, Siz sport kurash turlariga necha yoshdan qabul qilgan ma'qul deb hisoblaysiz? mazmunadagi savolga Dzyudo kurashi respondentlarining (23%), 6-7 yoshdan, (22%), 8-9 yosh, (36%) 10-11 yosh, (19%) 12-13 yoshda qabul qilish yuqori samara berishi haqida ma'lumot berishgan bo'lsa, erkin kurash respondentlarining esa mazkur savolga (26%) 7-8 yoshda, (24%) 9-10 yosh, (38%), 11-12 yosh, (12%) 13-14 yoshni tanlashgan. Yunon rum kurashi respondentlarning ushbu anketa savolnomasiga (22%) 6-7 yosh, (27%) 8-9 yosh, (34%) 10-11 yosh, (17%) 12-13 yoshni tashkil qilishi aniqlandi. Yuqoridagi savolga belbog'li kurash respondentlarining javoblari quyidagi ko'rsatkichlarda aks etdi, respondentlarning (16%) 8-9 yosh, (35%) 10-11 yosh, (39%), 12-13 yosh, (10%) 14-15 yoshni tanlashgani aniqlandi. Kurash sport turiga necha yoshdan qabul qilish ma'qul yosh deb hisoblaysiz mazmunidagi anketa savolnomaga respondentlarning (19%) 7-8 yosh, (24%) 9-10 yosh, (44%) 11-12 yosh, (13%) 13-14 yoshni tanlashgani olingan javoblarning umumiy ko'rsatkichlarida o'z aksini topdi.



1-rasm. Sport kurashi turlariga qabul qilish yosh davrlari taqsimlanishi

Masalan, V.M.Volkov va V.P.Filin sport saralovi – bolalar, o'smirlar hamda yigit-qizlarning muayyan ixtisoslik bo'yicha qobiliyatlarini aniqlaydigan tashkiliy-uslubiy chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Demak biz ma'lum bir sport turi uchun bolalarni qobiliyatlarini aniqlash uchun, albatta, saralov olib borishimiz kerak. Lekin bizni eng asosiy maqsadimiz sport kurash turlariga saralashning yosh davrlarini aniqlab olishimiz lozimligi tushunildi.

Keyingi anketa savolnomada sport kurashi turlariga bolalarni saralab olishda qaysi jismoniy sifatlariga e'tibor berasiz? mazmunidagi anketa savolnomasiga respondentlarning javoblari quyidagicha aks etdi. Ushbu anketa savolnomasiga dzyudochilarda (26%) tezkor-kuch, (37%) chidamlilik, (15%) egiluvchanlik, (22%) chaqqonlik sifatini tarbiyalash deb baholashdi. (2-rasmga qarang).




2-rasm. Sport kurashi turlariga bolalarni saralab olishda jismoniy sifatlarning qiymati

Mazkur savolnoma erkin kurash bo'yicha javoblar quyidagicha (31%) chaqqonlik, (22%) tezkor-kuch, (26%) chidamlilik, (21%) egiluvchanlik sifatleri tashkil qildi. Sport kurashi turlariga bolalarni saralashda qaysi tayyorgarlik turlaridan foydalanasiz mazmunidagi savolga dzyudo sport turi bo'yicha respondentlarning (43%) umumiy jismoniy tayyorgarlik, (27%), maxsus jismoniy tayyorgarlik, (19%) Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar, (11%) Funktsional tayyorgarlik holatiga e'tibor berishlari aniqlandi.

Erkin kurash sport turida esa respondentlarning javoblari quyidagicha baholandi (13%) Funktsional tayyorgarlik, (18%) Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar, (45%) umumiy jismoniy tayyorgarlik, (24%) maxsus jismoniy tayyorgarlik holatiga e'tibor berishlari aniqlandi.

Yunon rum kurashi bo'yicha mazkur savolnomaga respondentlarning javoblari quyidagicha aks etdi, xususan (15%) Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli

o'yinlar, (11%) Funktsional tayyorgarlik, (22%) Maxsus jismoniy tayyorgarlik, (52%) umumiy jismoniy tayyorgarlik alohida e'tibor berishlari aniqlandi (3-rasmga qarang).




3-rasm. Sport kurashi turlariga bolalarni saralashda tayyorgarlik turlarining ahamiyatlilik darajasi

Belbog'li kurash sport turida ushbu anketa so'rovnomasiga respondentlarning javoblari quyidagicha aks etdi, (12%) Funktsional tayyorgarlik, (48%) Umumiy jismoniy tayyorgarlik, (24%) Maxsus jismoniy tayyorgarlik, (16%) Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar e'tibor berishlari aniqlandi.

Kurash sport turida ushbu anketa savolnomasiga respondentlarning javoblari esa (46%) Umumiy jismoniy tayyorgarlik, (13%) Funktsional tayyorgarlik, (18%) Sport turi texnikasini o'zida mujassam etgan xarakatli o'yinlar, (23%) Maxsus jismoniy tayyorgarlik holatiga e'tibor berishlari aniqlandi.

Sport kurashi turlariga bolalarni saralashda vazn-toifalarini inobatga olgan xolda me'yorlardan foydalanasizmi? mazmunidagi savolga dzyudo sport turi bo'yicha respondentlarning (8%) yo'q, (16%) ha, (57%) Katta yoshli kurashchilarda foydalanaman, (19%) Barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hilligi haqida ma'lumotlar berishgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Sport kurashi turlariga bolalarni saralashda vazn-toifalarini inobatga olgan xolda me'yorlardan foydalanish holati

Erkin kurash sport turida esa respondentlarning javoblari quyidagicha baholandi (11%) ha, (24%) Barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hil, (19%) yo'q, (46%) Katta yoshli kurashchilarda foydalanaman deya javoblar qayt etishgan.

Yunon rum kurashi bo'yicha mazkur savolnomaga respondentlarning javoblari quyidagicha aks etdi, xususan (39%) barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hil, (15%) ha, (22%) katta yoshli kurashchilarda foydalanaman, (24%) yo'q mazmunidagi javoblar qayd etishdi. Belbog'li kurash sport turida ushbu anketa so'rovnomasiga respondentlarning javoblari quyidagicha aks etdi, (17%) ha, (35%) katta yoshli kurashchilarda foydalanaman, (23%) yo'q, (25%) barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hilligi haqida ma'lumotlat berishdi. Kurash sport turida ushbu anketa savolnomasiga respondentlarning javoblari esa (23%) katta yoshli kurashchilarda foydalanaman, (29%) yo'q, (39%) barcha vazn-toifalari uchun me'yoriy testlar bir hil, (9%) ha degan javoblarni berishdi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar. Yuqoridagi ma'lumotlarga asosanib, sport kurashi turlariga saralash jarayonini ma'lum bir mezonlarga asoslangan tizim ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Anketa so'rovi natijalari, sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirish jarayonini o'rganish dolzarb yo'nalish bo'lib, keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. Sport kurash turlariga saralash va erta yo'naltirish, uzoq muddatli tayyorgarlikning barcha

asosiy bosqichlarini qamrab olgan uzluksiz jarayon sifatida ko'rib chiqishni bir qator mutaxassislar tamonidan alohida taklif qilingan. Shunday ekan uning birinchi bosqichida sport yo'nalishi bilan ifodalanishi, bu sportchi qobiliyatini aniqlash, baholash va prognozlashni hamda saralash jarayonida sport kurashi turlariga mos keladigan bolalarni ushbu sport turiga yo'naltirishimiz lozim. Olib borilgan tizimli tadqiqotlarga qaramasdan o'quv-uslubiy manbalarda mazkur mavzu yuzasidan sport kurashi turlarini shiddat bilan rivojlanishi, ushbu sohada yangi zamonaviy yondashuvlar sport kurashi turlariga saralash tizimi va mazmunini takomillashtirishga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlanmalarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artikov Z.S. Белбоғли курашда статик ва динамик кучланиш давомида мувозанат сақлаш функциясини шакллантириш методикаси// п.ф.б.ф.д., (PhD) Автореферат., Чирчиқ. ЎзДЖТСУ. 2019. – 28 б.
2. Азизов Н.Н. Малакали дзюдочиларнинг махсус ва мусобақа олди тайёргарлигини шакллантириш. Дисс.канд.пед.наук. 2007.- 143 б.
12. Матвеев Л.П. Категория «развитие», «адаптация» и «воспитание» в теории физической культуры и спорта (давние, но не стареющие и новые идеи) // Теория и практика физической культуры. 1999. - № 1. -С. 2-11.
3. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. / Darslik. – T.: Sano-Standart. 2017. – 480 b.
4. Olimov M.S. O'rta masofaga yugurish shiddati va uni nostandartlashuv asosida shakllantirish. Monografiya. Yengil atletikachi talabalar misolida. Ch.: ITA-PRESS nashriyoti. 2019. - 200 b.
5. Верхошанский, Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте / Ю.В. Верхошанский. - М.: Советский спорт, 2013. – 216 с.
6. Дадабаев О.Ж. Дзюдочиларнинг кўп йиллик тайёргарлиги концепцияси // докторлик диссертацияси. Ч.:2021. – 218 б.
7. Зациорский В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания/В.М. Зациорский. 3-е изд. - М.: Советский спорт, 2009. – 200 с.
8. Лях В.И. Двигательные способности школьников: основы теории и методики развития. М.: Терра-Спорт, 2000. - 192 с.
9. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев: Олимпийская литература, 1999. - 318 с.
10. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера: наука побеждать. АСТ: Астрель, - М.: 2008. - 863 с.
11. Matkarimov R.M. Og'ir atletika nazariyasi va uslubiyati: jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik / R.M. Matkarimov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2015. - 200 b.
12. Usmonxo'jayev T.S., Aliyev M.B., Sagdiyev H.H., Turdiyev F.K., Akramov J.A., Bolalar va o'smirlar sporti mashg'uloti nazariyasi va uslubiyoti. T., "Ikm Ziy". 2006. 124 b.
13. Salamov R.S., Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti 1 tom. Darslik. ITA-PRESS. T,-2015. 220 b.



14. Xalmuxamedov R.D., Shin V.N., Abdurasulova G.B., Tajibaev S.S. Yosh yakkakurashchilarni ko'p yillik tayyorgarlik jarayoning turli bosqichlarida saralashning me'yorlari/ o'quv-uslubiy qo'llanma – O'zDJTL, 2013. – 166 b.;
15. Шакиржанова К.Т.; Тухтабаев Н.Т. Легкоатлетический спорт в Узбекистане после образования независимости государства. Сборник научных трудов конференции УзГосИФК, 2010. – С.28-29.
16. Umarov D.X., Xolmurodov L.Z. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya/Darslik, "O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA UYI". -T., 2021. – 148 b.
17. Миржамалов М.Х Паралимпия ўйинларига захира спортчилар тайёрлаш тизими // "Namangan Davlat Universiteti Ilmiy axborotnomasi" 2022. № 4.-Б.-642-649.
18. Адилов С.Қ. Эркин курашчиларнинг спорт педагогик маҳоратини ошириш/Ўқув қўлланма. "Илмий техника ахборот-пресс" нашриёти. – Т.; 2018.- Б. 12-23
19. Нуршин Ж.М., Мирзакулов Ш.А. Ёш белбоғли курашчиларнинг жисмоний тайёргарлиги// Жисмоний тарбия ва спорт машғулоти назаляси ва услубиятининг замонавий муаммолари/ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. II қисм. – Тошкент. 2015. – Б. 83-84.
20. Kerimov F.A. Kurash elementlariga ega harakatli o'yinlar. - T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2020. - 88 b.



Radjabov U.R.....	
64 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyadan foydalanishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan texnologiyalardan foydalanish	
Turdiyev A.G'.....	656
65 Chiziqli garmonik ossilyator mavzusini o'qitishda yangicha yondashuv	
Muxtarov E.K.....	660
66 Texnologiya fanidan to'qish to'garagi mashg'ulotlarini olib borish metodlari	
Kirgizova N.X.....	669
67 Methodology of speaking skills in teaching a foreign language and its difficulties	
Sattorova F.E.....	677
68 Bo'lajak o'qituvchilarni elektron ta'lim resurslari (etr) vositasida mashg'ulotlarini rejalashtirishga o'rgatish orqali pedagogik kompetentlikni shakllantirish	
G'aniyev Sh.R.....	683
69 Zamonaviy pedagogikada akmeologik yondashuvning ahamiyati va tamoyillari	
Rajabov F.T.....	690
70 Ingliz tili fanini o'qitishda hamkorlikda o'qitish strategiyalarining istiqbollari	
Ashurova D.G.....	694
71 Haykaltaroshlik san'atining kelib chiqish tarixi va taraqqiyoti	
Sayfiddinov A.S., Ro'ziboeva G.S.....	699
72 Особенности разработки и реализации прогностико-диагностических вариативных моделей и систем мотивационно-развивающих педагогических технологий в инновационной и образовательной среде вуза	
Джафарзода Сабзали Файзали	703
73 Mamlakatimiz rivojlanishida uzluksiz ta'limning o'ziga xos xususiyatlari	
Raximov I.A.....	711
74 Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	
To'xtasinov Sh.Sh.....	715
75 O'quvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirishda sinfdan tashqari tadbirlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlari	
Latipova N.I.....	719
76 Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishning ilmiy-metodik xususiyatlari	
Xamidjonov A.U.....	724